

## O'ZBEKISTONDA GANCH O'YMAKORLIK SAN'ATI. USTA TOSHPO`LAT ARSLONQULOV IJODIGA NAZAR.

Gulchehra Abrorova

*O'zbekiston amaliy san'at va  
hunarmandchilik tarixi davlat  
muzeyi katta ilmiy xodimi*

**Annotasiya (o'zbekcha):** Ushbu maqolada qadimiy san'at turlaridan biri ganch o'ymakorlik san'ati, uning O'zbekistonda rivojlanishi, bizgacha saqlanib kelgan madaniy meros ob'ektlari, hamda ushbu san'at turini rivojlantirishda o'zlarining ulkan hissasini qo'shgan toshkentli mashhur ustazoda T.Arslonqulovning bajargan bebafo ijodiy ishlaridan bir qancha namunalar haqida umumiy ma'lumotlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ганч, гажа, гаж, турунак, муқарнас, пардоз тамаки, сталактит, гипс, чока пардоз, zanjira, ruta islumi.

### Аннотация. (на русском языке)

В этой статье рассказывается об одном из древних видов искусства - искусстве резьбы по ганчу, его развитии в Узбекистане, объектах культурного наследия, которые сохранились до нас, а также о знаменитых мастерах, внесших свой выдающийся вклад в развитие этого вида искусства. Приведена общая информация о ряде образцов бесценной творческой работы, выполненной известным ташкентским мастером Т.Арслонкуловым.

**Ключевые слова:** ганч, гажа, гаж, турунак, муқарнас, пардоз тамаки, сталактит, гипс, чока пардоз, занжира, рута ислими.

### Annotation. (in english)

This article describes one of the ancient art forms - the art of ganch carving, its development in Uzbekistan, cultural heritage sites that have survived to us, as well as famous craftsmen who have made an outstanding contribution to the development of this art form. The article provides general information about a number of samples of invaluable creative work performed by the famous master of the Tashkent T.Arslonkulov.

**Key words:** ganch, gazh, gazh, turunak, mukarnas, pardoz tamaki, stalactite, gypsum, choka pardoz, zanjira, ruta islimi.

O'tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar kishini hayratga soladi. Qadimiy obidalarning va bezaklarning umri boqiyligi shundaki, ota-bobolarimiz yuqori sifatli, g'oyat chidamli hamda davr sinovlaridan o'tgan qurilish materiallari: yog'och, ganch, tuproqdan unumli foydalanganlar. Ular bu materiallarni qaerda va qanday qo'llanish sir-asrorini yaxshi bilganlar.

Ganch-mahalliy qurilish materiali bo'lib, uning rangi qo'k yoki sarg'ish bo'ladi. Ganch turli joylarda turli nomlar bilan yuritilgan. Kavkazda «gaja», forscha «gaj», tojikcha «ganch», turkcha «turunak», o'zbek tilida-ganch deb yuritiladi. Ganch ikki xil: tabiiy va sun'iy bo'ladi. Ganchkorlik O'zbekiston me'morchilik-bezak san'atining qadimiy turlaridan biri bo'lib, uzoq asrlar davomida rivojlangan. Bu san'atning qadimgi, o'rta asrlardagi va XX asrdagi rivoji bir-biridan farq qiladi. Qadimgi ganch o'ymakorligi hajmiy bo'lib, unda realistik tasvir ustunlik qiladi. Ularda, ko'pincha odamlar, hayvonlar, qushlar tasvirlangan. Eramizning dastlabki asrlarda kishilar ganchning ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, qal'a, karvonsaroy va boshqa joylarni bezay boshlaganlar. Bo'lib o'tgan janglar oqibatida ular vayronaga aylanib, faqat qoldiqlari saqlanib qolgan. III asrda Tuproqqal'aning serhasham saroy mehmonxonalarini o'yma ganch bilan bezatilgan. Varaxsha shaharchasi juda katta ahamiyatga ega bo'lgan va eramizdan avvalgi III-IV asrlarda ishlangan ganch o'ymakorligi namunalari topilgan. Unda o'simliksimon, geometrik shaklli naqshlar ganchdan ishlangan. Ayniqsa gorelbeefli ishlangan baliq tasvirida o'yilgan ganch namunasini ko'rsatish mumkin. O'rta Osiyoga islam dini yoyilganidan so'ng, bino va inshootlar arxitekturasi va inter'er bezagida tirik mavjudotni tasvirlash taqiqlandi. X-XI asrlarda naqqoshlik, yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi yanada rivojlandi. Murakkab abstrakt tasvirni aks ettiradigan naqshlar paydo bo'la boshladi. Ganch o'ymakorligi ishlari uyning ichki va nam tegmaydigan tashqi qismida ham qo'llanildi. Termiz maqbaralaridagi ganch o'ymakorlik san'atini o'sha davrning yuqori cho'qqisi deyish mumkin. XII asrda muqarnas lar paydo bo'ldi va ko'pgina binolarda qo'llanila boshlandi.

Temuriylar hukmronligi davrida (1370-1507 yillar) qadimgi Movarounnaxr hududida barpo qilingan tarixiy me'morchiligidagi keng qo'llanilgan va hozirgi kungacha saqlanib qolning ganch o'ymakorligi namunalari misolida ko'rishimiz mumkin. Sohibqiron Amir Temurning «Temur tuzuklari» asarida bayon qilinishicha, «aholi o'n ikki guruhga (toifaga) bo'linadi va ganch bilan shug'ullanuvchi ustalar o'n birinchi guruhga, quruvchilar esa sakkizinchagi guruhga kiritilgan. Bundan tashqari, hech bir usta o'z ismini o'zi qurgan yoki bezatgan binolar bilan nomlamagan, chunki bu taqiqlangan edi». Shu tufayli bizgacha yetib kelgan tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning qadimiyligi me'morchilik inshootlarini ganch bilan bezashda ishtirok etgan ko'plab ustalarning ismlari bizga noma'lum bo'lib, ularning o'sha paytda jamiyatda past mavqega ega ekanligidan dalolat beradi.<sup>1</sup>

Ganch bilan o'yish san'ati Temuriylar davrida o'ziga xos yuksalish yo'lini bosib o'tdi, uning uslublari, texnikasi XVII-XIX asrlarda o'zbek xonliklari hukmronligi davrida ancha murakkablashdi. Qurilgan mahobatli imoratlarda halq ustalari yorqin jilvali bo'yoqlar bilan ganchga jilo berdilar. Bezaklarning ham turlariga xos aniq kompozitsion qonunlar ishlab chiqildi. Ganchkorlikning gullab yashnagan davri VIII asrning oxiri-XX asrning boshlari bo'ldi. Uning uslublari, texnikasi ancha murakkablashdi. Ganch o'ymakorligining barcha turlari rivojlandi. Qurilgan binolarda halq ustalari yorqin jiloli bo'yoqlar bilan ganchga jilo berdilar. Bezaklarning hamma turlariga aniq kompozitsion qonunlar ishlab chiqildi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi va Xivada o'ziga xos mustaqil maktablar vujudga keldi. Buxoro maktabi ganchkorligining texnik jarayoni birmuncha murakkab, ishlovlarning noyob uslublari va rang-barang ohanglari bilan ajralib turadi. Ular "tabaqa pardoz" o'ymakorligining o'ziga xos turini yaratdilar, bu uning sayoz chuqurligi bilan silliq fonda bezak naqshlarining samarali rivojlanishida namoyon bo'ladi. XIX asr oxirida XX asr boshida rangli ganch texnikasi ham keng qo'llanilgan bo'lib, unda badiiy effekt

---

<sup>1</sup> Мухаммадиева Дилфуза. "резьба по ганчу". "Сиёсатшунослик, ҳуқуқ ва ҳалқаро муносабатлар" журнали. JILD:01 NASHR:07 2022 yil. ISSN 2181-3477 0 [http://t.me/ScienceBox\\_official](http://t.me/ScienceBox_official)

rangli gipsdan aniq rasmlar bilan erishilgan. Buxoro ganch o'ymakorlik maktabining uslubi va Samarqand ustalarining ish uslubi jihatidan bir-biriga yaqindir. Samarqand ustalarining ishslash uslublari Buxoro ganchkorligiga yaqin bo'lib, murakkab ganchning stalaktit uslubi orqali devorlar yuqori burchaklarini o'yma naqshli panno bezatilishi bilan ajralib turadi. Qo'qon va Xiva ganchkor ustalarining ishlari murakkab orasta qiyofali xandasaviy naqshlari – girixlar bilan boy.

Toshkent ganch o'ymakorligida ham qadimdan rivojlanib kelayotgan o'simlik-islimiy kompozitsiyalar farg'onalik ustalarning ishlariga yaqin bo'lib, ko'pincha "o'simlik zanjiri" turkumidagi naqshlarni tashkil etadi. Bu matabdan Usmon Ikromov, usta Toshpo'lat Arslonqulov, Mahmud Usmonov, Hayot Abdullaev, Ziyodulla Yusupov, Tohir Umarov kabi qator yetuk ustalar yetishib chiqqan. O'zbek ganchkorlik san'atining mashhur ustalaridan biri Toshpo'lat Arslonqulov 1882 yil Toshkent shahrining "Kamolon" mahallasida ganch o'ymakor usta oilasida dunyoga kelgan. Otasi Arslonqul Nazarov o'sha davrning mashhur ustalaridan biri bo'lgan. Uning ota-bobolari ham ganch o'ymakorlari bo'lgan. Toshpo'lat 12 yoshida naqsh kompozitsiyalarini tuzish, ularni o'yib, pardoz, choka pardoz berish sir-asrorlarini otasidan o'rgandi. Bo'lajak usta ko'p yillar davomida otasi bilan birgalikda Toshkent, Qo'qon, Samarqand, Buxoro, Farg'ona kabi shaharlarda mahalliy boylarning mexmonxonalar, hashamatli saroylarini ajoyib ganch o'ymakorligi ishlari bilan bezash ishlarida ishtirok etdi. U xonalarning ichki qismini o'yma gulli namoyonlar, tokchalar, kitoba va boshqalar bilan bezatib, chetiga "zanjira", "ruta islimi" hamda geometrik naqshlar bilan badiiy ishlov bergen. 1902-1903 yillarda A.Polovtsovning qarorgohi o'zbek milliy ganch naqshlari bilan bezatildi.

XIX asr oxirida "Polovtsovlar uyi" nomi bilan mashhur bo'lgan o'zbek me'morchiligining Toshkent shahridagi go'zal yodgorligida O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi joylashgan bo'lib, u mamlakatimizning eng mashhur madaniy-ma'rifiy markazlaridan biridir. 1896 yilda Ichki ishlar vazirligining maxsus topshiriqlari bo'yicha davlat xizmatchisi A.A.Polovtsev (1867-1944), O'rta Osiyo va Kavkazda ko'chirish ishlarining holati va muammolarini o'rganish uchun

Sankt-Peterburgdan Toshkent shahriga keldi. Taniqli dvoryanlar oilasining vakili sanalgan Polovtsov diplomatik xizmatni o'tash bilan bir qatorda arxeologiya va etnografiyaga ham juda qiziqqan, Turkiston arxeologlar to'garagining a'zosi bo'lган va san'at olamidagi eng mashhur kishilarning ko'pchiligi bilan yaqindan aloqa o'rnatgan. Turkiston viloyati bilan yaxshi tanish bo'lган, etnograf V.P.Nalivkinning tavsiyasi bilan Polovtsov oddiy rus askarining nabirasi, Turkiston o'qituvchilar seminariyasining bitiruvchisi, o'zbek, tojik, arab, qozoq tillarini ham juda yaxshi biladigan Mixail Andreevni o'ziga kotib qilib oladi. U yangi boshlig'i topshirig'iga ko'ra toshkentlik tadbirkor N.I.Ivanov uyini ("boy hovlini") sotib oladi va uni qayta qurish bilan shug'ullanadi. Qurilish ishlari me'mor A.A.Burmeyster nazorati ostida amalga oshiriladi. M.S.Andreev o'z navbatida binoning ichki bezatilishi bilan shug'ullanadi va buning uchun o'sha davrning taniqli halq ustalarini taklif qiladi. Polovtsovning mahalliy san'atga bo'lган ishtiyoqi va Andreevning bu sohadagi ajoyib qobiliyati bezash uslubini tanlashda muhim ahamiyat kasb etgan-unda milliy me'moriy bezak sohasidagi eng yaxshi yutuqlardan foydalangan holda ish olib borishiga qaror qilingan. Keyinchalik Toshkent shahrining ko'rkiga aylangan muhtasham me'morchilik durdonasining qad ko'tarilishi ana shunday boshlangan edi. Binoni bezatish ishlarida nafaqat Toshkent, balki Buxoro, Namangan, Qo'qon, O'ratega kabi shaharlarning eng yaxshi ustalari ham ishtirok etishgan.

Binoning devorlari va shiftida usta-hunarmandlarning qo'l mehnati, mahorati, aql-zakosi aks etgan. Binoga naqsh berish ishlari usta Olimjon Qosimjonov tomonidan boshqarilgan. Zalning shimoliy va janubiy devorlari panjara uslubidagi ganch o'ymakorligi bilan ishlangan ikkita taxmon-tokcha bilan ajratilgan. Buxorolik naqqosh, usta Shirin Murodov ayvon, janubiy va g'arbiy devorlarni bezatgan. Usta Toshpo'lat Arslonqulov tokchalarga naqsh berish va alohida pannolar o'ymakorligida qatnashgan. Uyning ayvoni, katta mehmonxonasi va yotoqxonasi juda jumjimador qilib bezalgan. Ayvonga tutashgan fasadning tashqi bezaklari, mehmonxona hamda unga qo'yilgan yog'och va ganchga o'ymakorlik uslubida ishlov berilgan va naqsh chizilgan koshinli chilimxonaning ichki ko'rinishi milliy uslubda ishlangan devoriy bezaklarning ajoyib namunalari hisoblanadi. Mehmonxona devorlari sathiga zeb berishda ko'zga

tashlanadigan belgilarni taqsimlash jarayonida ustalar hashamdon uyning ichki qismini bezash uchun odatiy uslublardan kelib chiqib yondashishgan. Devorlarning pastki qismida sopol koshin bilan qoplangan, unchalik baland bo'lмаган panelъ joylalashtirilgan. Usta Toshpo'lat Arsloqulov tomonidan o'yma naqsh kompozitsiyasida shobarg va to'pbarglar yirik, jimjimador qilib bezatilib, o'yma choka pardoz berilgan. Devorlarga o'yilgan ganch o'yma namoyonlar vertikal hamda gorizontal joylashtirilgan bo'lib, atrofi mayda, ensiz zanjira, islimiy ruta, ya'ni hoshiya naqshlar bilan o'rалган. Namoyonlar xuddi yuqoriga qarab o'sayotgan o'simlikni eslatadi. T.Arslonqulov biror xonaga mo'ljallab kompozitsiya chizarkan, naqsh bitganda qanday chiqishi zamini, o'ymasining ingichka yoki yo'g'onligini, xonani yorug'ligini hisobga olishi muhim bo'lган. Bu esa o'z navbatida usta Arslonqul ota va Toshpo'lat Arslonqulovning tabiat qoidalariga asoslanib, kompozitsiyani yanada jonli va tabiiy chiqara olganini, mahoratini ko'rsatadi. T.Arslonqulov gorizontal joylashtirilgan ikki peshtoqni o'yib, bu peshtoqlarga turunjsimon islimiy kompozitsiyasini ishlagan. Bu namoyonlar "lo'la pardoz" asosida bezatilgan. O'yma chuqurligi 10 mm atrofida, derazadan tushayotgan yorug'lik hisobga olingan, pardoz turlari to'g'ri tanlangan. Binodagi o'yma naqshga oppoq ganch zaminiga yashil va favorang berilganligi uni juda nafis qilib ko'rsatadi. Namoyonga kishi hoh uzoqdan, hoh yaqindan qarasin, u jozibador ko'rindi. Devorlarda tokhabandi uslubida tokchalar yasalgan. Tokchalar ham bezak, ham javon vazifasini bajargan. Bundan tashqari, uyni bezab turgan arxitektura elementlaridan hisoblanadi. Hozirgi kunda tokchalarda XIX-XX asrlarga oid mis-kandakorlik va kulolchilik eksponatlari namunalari o'rin olgan. 1902 yilda binoning qurilishi to'liq tugatildi, shu jumladan ichki bezak berish ishlari ham nihoyasiga yetkazildi. 1904 yilda "Samarqand" gazetasida "Toshkentdan xabarlar" rukni ostida bosilgan maqolada Cherevanskiyning keyinchalik N.I.Ivanovning nomiga o'tgan va oxirgi paytda A.A.Polovtsovning mulkiga aylangan eski uyni qayta qurish tugatilganligi e'lon qilindi.

T.Arslonqulovning samarali faoliyati davomida O'zbek milliy akademik drama teatri, Adabiyot muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri, O'zbekiston davlat san'at muzeyi binosining qurlishida qatnashdi. Unga halq amaliy san'atiga qo'shgan hissasi uchun 1944 yil O'zbekiston halq rassomi unvoni berildi. T.Arslonqulov

muzeylar uchun ham bir qancha namoyon, frizlar yasagan. 1951 yilda sobiq Leningrad ayni Sankt-Peterburgdagi Rossiya etnografiya muzeyi uchun namoyonlar tayyorlab bergen. Ularning birinchisi “majnuntol”, ikkinchisi-“chor kunj islimi”, uchinchisi-“pushak islimi” kompozitsiyalaridir.

Usta umrining so’nggi yillarida shogirdlarni tayyorlashga e’tibor qaratadi. U ganch o’ymakorligidagi tajribalarini yoshlarga o’rgatdi. 1952 yildan boshlab P.P.Ben’kov nomli badiiy bilim yurtida ganch o’ymakorligidan dars berdi. I.Zaynudinov, I.Romanov, S.Beoxin, V.Zufarov kabi shogirdlar tayyorladi. U shogirdlari bilan birga ko’pgina binolardagi ganch o’ymakorligi ishlarini bajardi. T.Arslonqulov 1962 yil 9 may kuni Toshkent shahrida vafot etdi. Lekin uning nomi xalq dilida va tilida abadiy yashaydi hamda yashamoqda. Ustaning yaratgan boy an’analari shogirtlari tomonidan rivojlantirib borilmoqda.

Hozirgi kunda ham ganchkorlikdek mashaqqatli va mo”jizakor kasb bilan shug’ullanib kelayotgan, bu kasbning sir asrorlarini shogirdlariga o’rgatib borayotgan, ganchkor ustalarimiz talaygina. Biz esa ularning bunday sharafli ishlariga lol qolamiz va ganchkor ustalarimizning ishlarini doimo qadrlaymiz.



T.Arslonqulov ganch bilan bezamoqda. (pastdagisi 1946 yil).

Т.Арсланкулов украшает ганчем. (внизу 1946 год).

T. Arslankulov decorates with ganch. (below 1946 year).

**Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. S.Bulatov, A.Muxtorov. “Ganchkorlik san’ati”. “Musiqa” nashriyoti. Toshkent. 2006 yil.
2. O’zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi to’plami. “Silk Road Media”nashriyoti. Toshkent. 2022 yil.